

**PERSONAJLAR RUHIY HOLATINING LINGVOKOGNITIV
TADQIQI**
(Zulfiya Qurolboy qizining “Mashaqqatlar girdobi” romani misolida)

Umida Xushvaqtova

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti rus tili va adabiyoti kafedrası
o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Badiiy asarda til yozuvchining o‘quvchiga faqat g‘oyaviy emas, balki estetik ta’sir etish istagi bilan maxsus qo‘shimcha vazifalarni bajarib, favqulodda qudratga, ta’sir kuchiga ega bo‘ladi. Demak, qo‘shimcha vazifa hozirda lingvopoetikaning o‘rganish ob’ekti bo‘lgan tilning estetik vazifasidir. Tilning estetik vazifasi haqida gap ketganda, bu masala adabiyotshunoslik va tilshunoslik o‘rtasidagi bahslarga sabab bo‘lib kelgan. O‘tgan asr boshlarida bir guruh tilshunos va adabiyotshunos olimlar bu masalani ilmiy asosda o‘rganadigan alohida fan turi shakllanishi kerakligi haqidagi mulohazalarni ilgari surganlar. Albatta, badiiy nutqni tahlil qilish uchun, tegishli tajriba va zarur vositalarga faqatgina tilshunoslar ega bo‘lgani uchun, uni faqat tilshunoslar o‘rganish lozimligi haqidagi bir yoqlama fikrni ham o‘rtaga tashlaganlar. Lekin, badiiy matnni uning estetik o‘ziga xosliklari jihatidan ham tahlil etilmasa, lingvistik tahlilning o‘zi yetarli emas. Bu o‘rinda badiiy matnning filologik, ya’ni lingvopoetik tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada badiiy diskursning lingvopoetik tahlili doirasi antropotsentrik tamoyillar asosida kengayib, til birliklarining lingvokognitiv xususiyatlarini qamrab olishi va bunda fanlararo integrativ yondashuvlarning imkoniyati kengligi xususida fikr yuritiladi. Maqoladagi faktik materiallar Zulfiya Qurolboy qizining “Mashaqqatlar girdobi” romanidan olingan.

Kalit so‘zlar: lingvopoetika, sotsiopragsmatika, antropotsentrik paradigma, lingvokognitiv xususiyatlar.

Keyingi yillarda qisqa vaqt ichida lingvopoetika yo‘nalishining ko‘lami kengayib, mohiyatan antropotsentrik tadqiqotlarning markaziy maydonlaridan biriga aylandi. Negaki, endi badiiy matnlar tahlili tilning faqat ekspressiv-estetik funksiyasi doirasidagina chegaralanib qolmay, til birliklarida inson omilining o‘rni va roli nuqtai nazaridan juda keng qamrovli izlanishlar olib borilmoqda. Shuning uchun lingvopoetikaning integratsion tabiati shakllanib, kognitiv lingvistika, psixolingvistika, sotsiopragsmatika, lingvokulturologiya, gender tilshunoslik kabi qator yondosh sohalar bilan hamkorlik qila boshladi. Xususan, o‘zbek tilshunosligida ham ana shunday tadqiqotlarning yuzaga kelayotganligi quvonarli holdir.

Masalan, D.X.Niyazovanning “Badiiy matnda lisoniy shaxs tiplari” tadqiqotida badiiy nutq ko‘rinishlari asosida *lisoniy shaxs* tushunchasining mohiyati ochib berilib, o‘zbek tilida lisoniy shaxs tiplarini ajratishning hissiylik va tizimlilik tamoyillari ishlab chiqilgan va shu bilan birga, adiblarning lisoniy qobiliyati, personajlar nutqini individuallashtirishda til vositalari (noadabiy qatlamga xos birliklar, hissiy bo‘yoqdor so‘zlar, kasbiy terminlar)dan foydalanish mahorati yoritilgan.[2;53] Muallif tilni

undan foydalanuvchi insonning shaxsiy sifatlari – kasbkori, yoshi, jinsi, ruhiyati, ijtimoiy maqomi kabilar bilan bog‘liq holda tekshirish ehtiyoji kuchayganligiga e’tibor qaratib, nutqiy faoliyat tahlilida lingvopoetik tamoyillarga tayanadi.

D.S. Narzullaevaning “Badiiy diskursda insonning ruhiy-emotsional holatini tasvirlashning lingvokognitiv xususiyatlari (ingliz va o‘zbek tillari misolida) mavzusidagi dissertatsiyasi ham dolzarbligi bilan e’tiborga molik. Mazkur ishda badiiy matnlarda asar muallifi tomonidan hissiyotlarni bevosita va bilvosita tasvirlash, personajlarning o‘zlarini gapirtirish va insonning emotsional holatini metaforik tarzda bayon qilish imkonini beruvchi tabiat hodisalarini tasvirlash vositasida insonning salbiy va ijobiy hissiyotlarini aks ettiruvchi funksional jihatlar o‘rganilgan. Badiiy diskursda inson ichki olami tasvirida leksik-stilistik (*ekspressiv, hissiy-ta’sirchan buyoqli so‘z va iboralar, undovlar, rangli ramzlar, frazeologizmlar*) va sintaktik (*talaffuz, tinish belgilari, gap tuzilishi*) vositalarning o‘ziga xosliklari o‘rganilgan, inson hissiyotlarini tasvirlashda verbal va noverbal vositalar orqali insonning psixik holati bilan bog‘liq tarzda nutqiy faoliyatning individual stereotiplari aniqlangan.

O‘.B.Shukurov esa badiiy diskurs tadqiqining kognitiv-pragmatik aspekti tahlilning samarali usullarini o‘z ichiga olishi xususida fikr yuritadi: “Har bir millat milliy madaniyatidan darak beruvchi badiiy matnlar mazmuni voqelanishining diskursiv va kognitiv-pragmatik jihatlarini ilmiy o‘rganishga ehtiyoj paydo bo‘ldi.... Matnning antropotsentrik nazariyasi doirasida badiiy ifodaning kognitiv tabiatini yoritish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu yo‘nalishda bajarilgan ishlar qatoriga, jumladan, konseptuallashtirish, kategoriyallashtirish, konseptlar nazariyasi, intertekstuallik, kognitiv semantika, kognitiv stilistika yo‘nalishlarida olib borilayotgan tadqiqotlarni kiritish mumkin”.

Shu tariqa, lingvopoetik tadqiqotlarning usul va metodlari kengayib bormoqda. Tahlillarimiz shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda o‘zbek yozuvchilari tomonidan yaratilayotgan nasriy asarlarning bir-birini takrorlamaydigan rang-barang lisoniy-uslubiy tabiati chuqur lingvopoetik tahlil ob’ekti bo‘la oladi. Bu esa o‘zbek tili ifoda imkoniyatlarining naqadar

cheksiz ekanligi, inson hayoti va turfa kechinmalarining yorqin bo‘yoqlarda aks etishining lisoniy asoslarini o‘rganish bilan tavssiflanadi.

Zulfiya Qurolboy qizining “Mashaqqatlar girdobi” romanida eng zamonaviy dolzarb mavzulardan biri - hujjatsiz o‘zbek migrantlarining mashaqqatli hayoti, og‘ir vaziyatlarga tushib qolgan holatdagi insoniy munosabatlari, turfa taqdirlar, erkak va ayollarning hayot sinovlariga dosh bera olishdagi iroda kuchi badiiy talqin qilingan. Yuqorida bayon qilingan nazariy tushunchalarga tayanib, adibaning voqelikni tasvirlash jarayonidagi personajlar ruhiy holatini ifodalashdagi o‘ziga xosliklarning lingvokognitiv xususiyatlarini tahlilga tortamiz.

Muayyan ijtimoiy shart-sharoit lisoniy shaxslarning ruhiyatiga ta’sir qilar ekan, munosabatlar taranglashadi va diskursiv vaziyatga ko‘ra personajlar nutqida ham o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Bunday vaziyatda nutq tozaligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan til birliklaridan biri *vulgarizmlar* hisoblanadi. Vulgarizmlar nutqning ta’sir kuchini pasaytirib, o‘zaro kommunikativ ziddiyatni kuchaytiradi.

Vulgarizmlar adabiy tilda ishlatilmaydigan dag‘al, qo‘pol so‘z va iboralardir. Vulgarizmlar badiiy adabiyotda ayrim personajlarning madaniyatsizligi, dag‘alligini bo‘rttirib ko‘rsatish uchun ishlatiladi. Semantik strukturasiga ko‘ra vulgarizmlar haqoratso‘kish, qarg‘ish va do‘q-po‘pisa bildiruvchi gruppalariga ajratiladi: *haromi*, *padarla’nat*, *muttahaam*, *yer yutsin*, *go‘rga kirgur* kabi.

- *Sen jig‘imga tegish uchun atay shunday qilding! Shippagimni olib kelib oyog‘imga kiydirib qo‘yasan!*
- *Atay qilganim yo‘q, nega tushunmaysan?!*
- *O‘tgan oy ko‘proq pul olganim uchun menga tish qayrab yuribsan! Ko‘rolmaysan meni!*
- *Sening nimangni ko‘rolmayman?! Bir safar ko‘p pul olsang olibsan-da!*
- *Alam qilgani yo‘qmi?*
- *Qilgani yo‘q, deyapman-ku senga! Alam qilgani yo‘q!*
- *Nega unda shippagimni tepib yubording?! Atay janjal chiqarish uchun shunday qilding!*
- *Ahmoq! Miyasi yo‘q eshak!*
- *Kim eshak?!*
- *Sen! Sen! Sen...*

Shunchaki shippakni tepib yuborgani uchun sherigiga nisbatan *eshak*, *axmoq* kabi vulgarizmlar, salbiy semantik bo‘yoqdorlikka ega *jig‘iga tegmoq* iborasi, takrorning *Sen! Sen! Sen...* tarzida tahdidli ohangda qo‘llanishidan kommunikanlarning ruhiy holati arzimagan kichik ko‘ngilsizlikka ham dosh

berolmay qolganini anglash mumkin.

Ertalab Po‘lat Damirovich soqchilari kuzatuvida barakka quzg‘unday bostirib kirdi. Biz odatdagiday safda turardik.

***Boshvoqsiz to‘nkalar!** - deya baqira ketdi u kirgan zahoti quturgan itday. - **Xom sut emgan, ipirisqilar!** Kimdan so‘rab mushtlashuvga chiqdinglar?! A, sendan so‘rayapman?!*

Po‘lat Damirovich har bir ishchining ro‘parasida to‘xtab, peshonasiga barmog‘ini bigiz qilib niqtardi. Navbat Husanga keldi.

*- Sendan so‘rayapman, **ahmoq!***

Po‘lat Damirovich uning ham peshonasiga barmog‘ini bigiz qilib niqtashga chog‘landi, lekin Husan chap berdi, o‘zini chetga tortdi.

Keyin nafrat bilan:

, burishmoq, yorishmoq kabi tus holatini bildiruvchi fe‘llar ham qo‘llanadi. Shu nuqtai nazardan, Zulfiya Qurolboy qizining “Mashaqqatlar girdobi” romanida inson yuzi rang-tusining o‘zgarishi quyidagi holatlarni ifodalashi kuzatildi:

1) kasallik va o‘lim holati bilan bog‘liq holda; 2) qo‘rquv, vahimaga tushish bilan bog‘liq holda;

3) g‘azab, nafrat, norozilik kabi psixologik kategoriyalar bilan bog‘liq holda.

*1) Karimboy aka qor ustiga cho‘k tushib engashgancha inqillab yotgan o‘g‘liga yelkasini tutdi. **Yuzi qordek oqargan** Alisher bir-ikki intildi, lekin nima uchundir gavdasini yerdan uza olmadi. Shundan keyin uni ko‘plashib ko‘tarib olishdi...*

*2) Shu chog‘ Husan bir qadam oldinga chiqdi. Oldinga chiqarkan, uning **yuzi oppoq oqarib ketgandi:***

- Qancha kerak?!

Jumlalardagi yuzning oqligi birinchi misolda tepadan yiqilib tushgan Alisherning fiziologik holati ifodalangan bo‘lsa, ikkinchi misolda ishchilar jamoasining hamiyatiga tegib ular ustidan kulgan Po‘lat Damirovichga nisbatan Husanning yuzi g‘azab va nafratdan oqargandagi psixofiziologik holat tasvirlangan. Tilshunos M. Hakimov o‘z ishlarida so‘zlashuvchilarning ruhiyati bilan bog‘liq sotsial belgilarni nutqiy aktlar doirasida tekshiradi. Olimning fikriga ko‘ra, psixologik kontekst so‘zlovchining ruhiy holatini ifodalaydi, so‘zlovchining kayfiyati, ruhiyati, idroki, tasavvuri, qo‘rqish yoki qo‘rqmasligi, rozi yoki rozi emasligi kabi ma‘nolarning matn mazmunida ifodalanishi nazarda tutiladi.

Sh.Alpanovanning “Nutqiy faoliyat jarayonidagi ruhiy holatlarning o‘zbek

tilining turli sath birliklari vositasida aks etishi” mavzusidagi ishida psixolingvistika muammolari monografik planda tadqiq etilib, soʻzlovchi va tinglovchi oʻrtasidagi, soʻzlovchi va matn, tinglovchi va matn oʻrtasidagi munosabatning ruhiyat bilan uygʻunligi, nutqning yaratilishi va idrok jarayoni, obʼektiv borliqqa subʼektiv - hissiy munosabat, kommunikantlar ruhiyatining nutqda aks etishi kabi qator masalalar oʻzbek tili materiallari asosida tahlil qilingan. Tadqiqotchi psixolingvistika obʼektini quyidagicha tavsiflaydi: “Psixolingvistika maʼlum bir sharoitda maʼlum bir axborotni nutq birliklari vositasida tinglovchiga yetkazishni, bu nutq parchasida soʻzlovchi ruhiyatidagi oʻzgarishlarning aks etishini, uning tinglovchiga taʼsiri masalalarini oʻrganadi. Nutqda axloq-odob, soʻzlashish rasm-rusumlari, nutqning muayyan ehtiyojlari, soʻzlovchi va tinglovchining yoshi, saviyasi, madaniylik darajasi kabilar oʻz aksini topadi va bularning barchasi psixolingvistikaning tadqiq manbai hisoblanadi.”

Nimalar boʻlyapti bu yerda? Odamlarning tinchini buzayotgan toʻpolonchi qani? - dedi u xonaga koʻz yugurtirarkan. Hamma jim.

Karimboy aka gap nimadaligini fahmladi, shekilli, **rangi boʻzday oqargan koʻyi** asta oʻrnidan turdi. Turdi-yu, yerga qaragancha indamay turaverdi.

2) - *Voy, Davron, bormisiz? - dedi **rangi quv oʻchgan ayol.***

-
Nima gap?

- *Xabaringiz yoʻqmi? Bugun bittasi qochib ketmoqchi boʻlgan ekan, soqchilar shartta otib tashlashibdi!*

3) - *Qoʻlimda hech qanday hujjatim yoʻq, shunday ekan, toʻgʻri kelgan familiyani aytaversam ishonasizmi?*

*Poʻlat Damirovichning **yuziga qizil yugurdi**, bilmadim, jahli chiqdimi yo uyalib ketdimi, ammo oʻzini yoʻqotib qoʻymasdan darrov javob qaytardi:*

- *Gap bunday, oʻrtoq Davron, bu yer sizga sirk maydoni emas! Bu yerning oʻz qonun-qoidalari bor. Shu qonun-qoidalariga soʻzsiz ravishda amal qilsangiz kelishib ketamiz siz bilan, aks holda...*

4)- *Esi joyidami bu bolaning?!*

- *Oʻzingning esing joyidami? Hech zamonda mushtlashuvgayam birovdan ruxsat soʻrab chiqiladimi, galvars?!*

*Poʻlat Damirovichning **yuzi koʻkarib ketdi.***

- *Soqchi! - deya chinqirdi u.*

Tahlillarimiz shuni koʻrsatadiki, badiiy matnda insonga xos his-tuygʻular, kechinmalar taʼsiridagi psixo-emotsional holatini tasvirlashning lingvokognitiv

o'ziga xosliklari belgi bildiruvchi, holat bildiruvchi so'z va iboralarning kognitiv-pragmatik semantikasi orqali aniqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Narzullaeva D.S. Badiiy diskursda insonning ruhiy-emotsional holatini tasvirlashning lingvokognitiv xususiyatlari (ingliz va o'zbek tillari misolida): filol.fanlari bo'yicha fals. d-ri (PhD) diss. avtoref. Samarqand, 2024.
2. Niyazova D. X. Badiiy matnda lisoniy shaxs tiplari: filol. fanlari bo'yicha fals. d-ri (PhD) diss. avtoref. Qarshi, 2020.
3. Shukurov O'.B. Badiiy diskurs kognitiv-pragmatik mundarijasini shakllantiruvchi lisoniy vositalar (ingliz va o'zbek tillari materialida): filol.fanlari bo'yicha fals. d-ri (PhD) diss. avtoref. Samarqand, 2023.
- Qilichev E. O'zbek tilining praktik stilistikasi. Toshkent: O'qituvchi, 1985.
5. Vinogradov V.V. О языке художественной литературы. М.: Наука, 1959.
6. Yo'ldoshev B. "O'zbek onomastikasi masalalari". – Samarqand: 2011.
7. Larin B.A. Estetika slova i yazyk pisatelya. L.:, 1974.
8. Novikov L.A. Художественный текст i yego analiz. М.:1988.
9. Podolskaya N.V. Slovar russkoy onomasticheskoy terminologii. Moskva: 1988.
10. Rogalev A.F. Vvedenie v antroponimiku. – Bryansk: 2009.
11. Superanskaya A.V. Общaya teoriya imeni sobstvennogo. – М.: 1973.
12. Тынянов Ю.Н. Поэтика. Историya литературы. Кино. – М.: 1977.
13. Gumboldt V.fon. Izbrannyye trudy po yazykoznaniyu. – М.: Progress, 1984.
14. Zalevskaya A.A. Vvedenie v psixolingvistiku. Moskva: Ros.gos.guman. in-t, 2000.
15. Mahmudov N. Til. Toshkent: Yozuvchi, 1998.